

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
MUHAMMAD AL-XORAZMIY NOMIDAGI
TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI

Ro'yxatga olindi: № 65
2025 -yil " 29 " 04

"TASDIQLAYMAN"
O'quv ishlar bo'yicha prorektor
D. Sultanov
2025 -yil 29 / 04



**MOLIYA BOZORLARI
FANI O'QUV DASTURI**

| | | |
|---------------------------|----------|--|
| Bilim sohasi: | 300000 | - Ijtimoiy fanlar, jurnalistika va axborot |
| Ta'lim sohasi: | 310 000 | - Ijtimoiy va xulq atvorga mansub fanlar |
| Ta'lim yo'nalishi: | 60310500 | - Raqamli iqtisodiyot (Axborot-kommunikatsion texnologiyalari) |

| | | | | | |
|------------------------------------|--|---|-------------------------------|-------------------------------------|--|
| Fan/modul kodi FIMA16MBK | | O'quv yili 2025-2026 | Semestr 6 | ECTS – Kreditlar 6 | |
| Fan/modul turi Majburiy | | Ta'lim tili o'zbek/rus/ingliz | | Haftadagi dars soatlari 5 | |
| 1. | Fanning nomi | Auditoriya mashg'ulotlari (soat) | Mustaqil ta'lim (soat) | Jami yuklama (soat) | |
| | MOLIYA BOZORLARI | 72 | 108 | 180 | |
| 2. | <p>I. Fanning mazmuni</p> <p>“Moliya bozorlari” fanini o‘qitishdan maqsad – talabalar ongida zamonaviy moliyaviy bozorlar tuzilmasi, ularning turlari (pul bozori, kapital bozori, fond bozori, valyuta bozori), moliyaviy aktivlar, moliyaviy vositachilar, investitsiyalar, risk va daromadlilik, foizlar pariteti, xalqaro moliyaviy integratsiya, valyuta kurslari, global kapital oqimlari va moliyaviy innovatsiyalar bo'yicha puxta bilim, amaliy ko'nikma va malakalarni shakllantirishdan iborat.</p> <p>Fanning asosiy maqsadi – talabalarni moliyaviy bozorlardagi ishtirokchilar va operatsiyalarni chuqur tushunishga, tahliliy fikrlash va ilmiy yondashuv asosida qaror qabul qilish qobiliyatiga ega mutaxassis sifatida tayyorlashdir.</p> <p>Fanning vazifasi - talabalarni nazariy bilimlar, amaliy ko'nikmalar, moliyaviy hodisa va jarayonlarga uslubiy yondashuv hamda ilmiy dunyoqarashini shakllantirish orqali fanning inson hayotidagi va jamiyatdagi o'rni hamda ahamiyatini ochib berish.</p> <p>II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)</p> <p>II.1. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:</p> <p style="text-align: center;">1-mavzu. Fanga kirish</p> <p>Moliya bozorining iqtisodiy mohiyati, ahamiyatli jihatlari, tarkibiy qismlari, Moliya bozori modellari, Moliyaviy bozorlarning vazifasi va turlari.</p> <p style="text-align: center;">2-mavzu. Moliyaviy institutlar</p> <p>Moliyaviy institutlarning tushunchasi va mohiyati, Moliyaviy institutlarning iqtisodiyotdagi ahamiyati. Moliyaviy institutlarning vazifalari va turlari. Mablag'larni jalb qilish va taqsimlashdagi roli, Bank institutlari, Nobank moliyaviy institutlar. Sug'urta kompaniyalari. Pensiya jamg'armalari, Investitsiya kompaniyalari. Mikro moliyalash institutlari. Moliyaviy institutlar faoliyatining tartibga solinishi.</p> <p style="text-align: center;">3-mavzu. Banklar va risklarni boshqarish</p> <p>Bank faoliyatida risklarning o'rni va ahamiyati, Risklarni boshqarishning bank tizimidagi zaruriyati, Risk tushunchasi va uning bank faoliyatidagi xususiyatlari,</p> | | | | |

Bank risklarini keltirib chiqaruvchi omillar, Bank risklarining turlari va ularning tavsifi, Bank risklarini boshqarish mexanizmlari va usullari, Bazel qo'mitasi va bank risklarini boshqarishning xalqaro standartlari, O'zbekiston bank tizimida risklarni boshqarish amaliyoti.

4-mavzu. Foiz stavkalari va qarz bozori

Foiz stavkasi tushunchasi va uning iqtisodiy mohiyati, Foiz stavkalarining turlari, Foiz stavkalarining shakllanish omillari, Qarz bozori tushunchasi va uning tarkibi, Qarz bozorining asosiy ishtirokchilari, Foiz stavkasi va qarz bozori o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik.

5-mavzu. Aksiya bozori

Aksiya bozori tushunchasi va uning iqtisodiyotdagi o'rni, Aksiya nima? Uning asosiy xususiyatlari, Oddiy (ordinariy) va imtiyozli (preferensial) aksiyalar farqi, Aksiyalar bozorining asosiy ishtirokchilari, Birlamchi va ikkilamchi aksiya bozorlari, Aksiyalar emissiyasi va IPO (Initial Public Offering) tushunchasi, Aksiyalarni baholashning asosiy omillari, Aksiya narxiga ta'sir qiluvchi ichki va tashqi omillar, Dividend tushunchasi va dividend siyosatining aksiyalar bahosiga ta'siri, Indeksar va ularning ahamiyati, Aksiya narxining o'zgarishini tahlil qilish usullari, Investitsiya portfeli va diversifikatsiya tushunchasi.

6-mavzu. Valyuta bozori

Valyuta bozori tushunchasi va uning iqtisodiyotdagi o'rni, Valyuta bozori turlari, Valyuta juftliklari va ularning turlari, Valyuta kursi tushunchasi va kurs turlari, Real va nominal valyuta kurslari tushunchasi, Valyuta ayirboshlash jarayoni, Valyuta kursining shakllanishiga ta'sir qiluvchi asosiy omillar, Valyuta kursi tizimlari, Markaziy banklarning valyuta bozorida roli, Xalqaro savdo va valyuta kursi o'rtasidagi bog'liqlik, Valyuta risklari turlari, Valyuta risklarini boshqarish usullari, O'zbekiston valyuta bozori xususiyatlari.

7-mavzu. Valyuta bozori notenglamalari: CIP buzilishi va tenglamalarning cheklovleri

Valyuta bozori va Covered Interest Parity (CIP) tushunchasi. CIP tenglamasining nazariy sharti va arbitraj imkoni. CIP buzilishining asosiy sabablari. Tenglamaning real amaliyotdagi cheklovleri.

8-mavzu. Hosilaviy moliyaviy instrumentlar bozori (Derivatives Market)

Hosilaviy moliyaviy instrumentlar (derivativlar) tushunchasi, Derivativlarning asosiy turlari, Derivativlardan foydalanish maqsadlari, Derivativlar bozorining ishtirokchilari va ishlash mexanizmi, Derivativlar bilan bog'liq risklar va ularni boshqarish

9-mavzu. Investitsiya va pay fondlari

Investitsiya fondlarining iqtisodiy mohiyati, paydo bo'lishi va ahamiyatli jihatlari, Investitsiya fondlarining turlari, Investitsiya fondlarining afzalliklari, Fond daromadlilikligi va risklari, O'zbekistonda investitsiya va pay fondlari faoliyat mexanizmi.

10-mavzu. Kriptovalyutalar bozori va blokcheyn texnologiyalar

Kriptovalyuta tushunchasi va uning yaratilish sabablari, Blokcheyn texnologiyasi asoslari, Kriptovalyutalarning turlari, Kriptovalyutalar orqali investitsiya va spekulatsiya, Kriptovalyutalarning iqtisodiyotga ta'siri va regulatsiya masalalari, Kriptoaktivlar xavflari va muammolari

11-mavzu. Moliya bozori tahlili

Moliya bozori tahlilining tashkiliy xususiyatlari, Fundamental tahlil, Moliya bozori texnik tahlili, Trend turlari va shakllari, Yapon shamlari turlari va modellari

12-mavzu. Moliya bozorini tartibga solish

Moliya bozorini tartibga solishning zarurligi va nazariy jihatlari, Moliya bozorini tartibga solish amaliyoti

III. Amaliy mashg'ulotlari bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

1. Fanga kirish
2. Moliyaviy institutlar
3. Banklar va risklarni boshqarish
4. Foiz stavkalari va qarz bozori
5. Aksiya bozori
6. Valyuta bozori
7. Valyuta bozori notenglamalari: CIP buzilishi va tenglamalarning cheklavlari
8. Hosilaviy moliyaviy instrumentlar bozori (Derivatives Market)
9. Investitsiya va pay fondlari

| | |
|----|--|
| | <p>10.Kriptovalyutalar bozori va blokcheyn texnologiyalar 11.Moliya bozori tahlili 12.Moliya bozorini tartibga solish</p> <p>Amaliy mashg'ulotlar multimedia qurilmalari bilan jihozlangan auditoriyadabir akademik guruhga bir professor-o'qituvchi tomonidan o'tkazilishi zarur. Mashg'ulotlar faol va interfaol usullar yordamida o'tilishi, mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalar qo'llanilishi maqsadga muvofiq.</p> <p>IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar</p> <p>Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Moliyaviy tizimning tarkibi va moliyaviy bozorlardagi ishtirokchilar 2. Moliyaviy institutlar turlari va ularning iqtisodiyotdagi roli 3. Markaziy bank va tijorat banklarining moliyaviy bozor faoliyatiga ta'siri 4. Bank risklarini turlari va ulami boshqarish strategiyalari 5. Foiz stavkalarining shakllanish omillari va investitsiya qarorlariga ta'siri 6. Qarz instrumentlari: obligatsiyalar, kreditlar va ularning baholanishi 7. Aksiya bozori va aksiyalarning qiymatini belgilovchi omillar 8. Dividend siyosati va uning aksiyalar narxiga ta'siri 9. Valyuta kursining shakllanish mexanizmi va unga ta'sir qiluvchi omillar 10.Covered Interest Parity (CIP) va uning amaliy buzilish holatlari 11.Derivativ instrumentlar: forward, futures, opsiya va swap shartnomalari 12.Derivativlar yordamida risklarni xedj qilish usullari 13.Investitsiya fondlari va ularning kichik investorlar uchun afzalliklari 14.Pay (ulush) fondlari va ETFlar: solishtirma tahlil 15.Kriptovalyutalarning iqtisodiyotga ijobiy va salbiy ta'sirlari 16.Blokcheyn texnologiyasining moliyaviy sohadagi qo'llanilishi 17.Moliyaviy bozor tahlilining asosiy usullari: fundamental va texnik tahlil 18.Moliya bozorlarini tartibga soluvchi institutlar va qonunchilik (O'zbekiston misolida) 19.Global moliyaviy inqirozlar va ularning moliya bozorlariga ta'siri 20.Raqamli moliya va FinTech'ning an'anaviy moliyaviy institutlarga ta'siri <p>Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan loyiha ishi, esse, tezis yoki ilmiy maqola yozish, referatlar tayyorlash va uni taqdimot qilish tavsiya etiladi.</p> |
| 3. | <p>V. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetentsiyalar)</p> <p>Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:</p> <ul style="list-style-type: none"> - moliyaviy bozorlarning mohiyati va vazifalari, ularning turlari (pul bozori, kapital bozori, fond bozori, valyuta bozori), moliyaviy vositachilar va moliyaviy instrumentlar, global moliyaviy integratsiya, foizlar pariteti, valyuta kurslari, xalqaro moliyaviy aloqalar, suveren qarzdorlik va moliyaviy risklar haqida zarur bilim va tasavvurga ega bo'lishi; |

| | |
|----|--|
| | <ul style="list-style-type: none"> - moliyaviy bozorlar bilan bog'liq asosiy nazariyalar, sof joriy qiymat, investitsion portfelni shakllantirish, pul oqimlarini boshqarish, diversifikatsiya, diskontlash, moliyaviy koeffitsiyentlar, real va nominal valyuta kurslari, sanksiyalar va kapital harakatlariga nazoratni bilish, ularni amaliyotda qo'llash ko'nikmalariga ega bo'lishi; - talaba moliyaviy bozorlar va ularning ishtirokchilarini tahlil qilish, moliyaviy vositalar bilan ishlash, risklarni aniqlash va baholash, investitsiyaviy qarorlar qabul qilish, moliyaviy natijalarni tahlil qilish usullarini amaliyotda qo'llash, moliyaviy muammolar bo'yicha samarali yechimlar ishlab chiqish malakasiga ega bo'lishi kerak. |
| 4. | <p>VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:</p> <ul style="list-style-type: none"> • ma'ruzalar; • vaziyatli topshiriqlarni (keys-stadi) yechish; • jarayonli-yo'naltirilgan ta'lim; • muhokamalarda ishtirok etish; • kichik guruhlarda ishlash; • loyiha ishi bajarish; • mustaqil ishlarni bajarish; • taqdimot tayyorlash; • turli darajadagi testlarni yechish; • so'rov o'tkazish. |
| 5. | <p>VII. Kreditlarni olish uchun talablar:</p> <p>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha test topshirish.</p> |
| 6. | <p>Asosiy adabiyotlar</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Frederic S.Mishkin, Stanley G.Eakins. Financial markets and institutions. – 9th ed. USA: Pearson, 2018. P. 706. ✓ 2. S.Elmirzayev, N.Shavkatov, N.Sherkuziyeva, A.Karimov, D.Abduraximova, S.Omonov Moliya bozori va moliyaviy texnologiyalar: Darslik – T.: « DIADEMA NUR SERVIS » OOO. – 412 b. ✓ <p>Qo'shimcha adabiyotlar</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Frederic S.Mishkin, Stanley G.Eakins. Financial markets and institutions. – 7th ed. USA: Pearson, 2012. P. 496. 2. Frederick S. Mishkin, Kent Matthews and Massimo Giuliodori. The economics of money, banking and financial markets. UK. Pearson, 2013. P. 3 3. Stephanie Schmitt-Grohe, Martin Uribe va Michael Woodford. 2022. Xalqaro makroiqtisodiyot: zamonaviy yondashuv. Princeton University Press. <p>Axborot manbaalari</p> <p>1.www.lex.uz - O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy</p> |

| | |
|----|--|
| | <p>bazasi.</p> <p>2. www.imv.uz - O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va Moliya Vazirligi rasmiy sayti.</p> <p>3. www.cbu.uz - O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki rasmiy sayti.</p> <p>4. www.natlib.uz - Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi rasmiy sayti.</p> <p>5. www.scopus.com - xalqaro ilmiy ma'lumotlar bazasi.</p> |
| 7. | <p>O'quv dasturi Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Kengashining 2025-yil <u>29.09. 8/9/20/25</u> sonli bayonnomasi bilan tasdiqlangan.</p> |
| 8. | <p>Fan/modul uchun mas'ul:</p> <p>Z.Z.Samadova - Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti "AKT sohasida iqtisodiyot" kafedrasida stajyor-o'qituvchisi.</p> |
| 9. | <p>Taqrizchilar:</p> <p>U.Yu.O'roqov - Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti "Moliya va moliyaviy texnologiyalar" kafedrasida professori</p> <p>N.A.Iminova - Muhammad al Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti "AKT sohasida iqtisodiyot" kafedrasida mudiri, i.f.n. dotsenti</p> |

